



Международный научно-образовательный
электронный журнал
«ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ»

УДК 37

ББК 94

Международный научно-образовательный электронный журнал
«ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ». Выпуск №8 (ноябрь, 2020)

Сборник содержит научные статьи отечественных и зарубежных авторов по экономическим, техническим, философским, юридическим и другим наукам.


Миссия научно-образовательного электронного журнала «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ» состоит в поддержке интереса читателей к оригинальным исследованиям и инновационным подходам в различных тематических направлениях, которые способствуют распространению лучшей отечественной и зарубежной практики в интернет пространстве.

Целевая аудитория журнала охватывает работников сферы образования (воспитателей, педагогов, учителей, руководителей кружков) и школьников, интересующихся вопросами, освещаемыми в журнале.

Материалы публикуются в авторской редакции. За соблюдение законов об интеллектуальной собственности и за содержание статей ответственность несут авторы статей. Мнение редакции может не совпадать с мнением авторов статей. При использовании и заимствовании материалов ссылка на издание обязательна.

© ООО «МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА»
© Коллектив авторов

Моя профессиональная
карьера



Научно-образовательный электронный журнал

ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ

Выпуск №8
(ноябрь, 2020)

Musiqiy terminlarni o'zbek tilshunosligida ilk bor lingvistik qonuniyatlar asosida obyekt qilib olgan tadqiqot 1981-yil filolog Sami Azizov tomonidan yaratilgan "Лексико-грамматическое исследование музыкальной терминологии ўзбекского языка" nomli dissertatsiya edi. Ushbu tadqiqotda musiqiy terminlarning leksik va grammatic xususiyatlari tahlil qilingan. O'zbek tilidagi cholg'u nomlarini anglatuvchi terminlarni tadqiqotchi quyidagi guruhlarga tasnif qildi:

- 1) torli (ud, chang, nuzha, qonun, rubob, qo'biz, tanbur, navhi, barbat);
- 2) damli cholg'ular (arg'anun, sibizg'a, burg'u, nay, surnay);
- 3) urma zarbli cholg'ular (tabl, ko's, tug' (nog'ora), tabrok).

S.Azizov keltirган: nuzha, navhi, barbat, arg'anun, burg'u, ko's, tabrok musiqiy terminlari bugungi kunga kelib o'zbek tilida tarixiy so'zlar tarkibiga kirgan. Tadqiqot keyinchalik Boku davlat universitetida faoliyat yurituvchi filologiya va falsafa fanlari doktori Iroda Abdullayevaning "Azärbaycan dilinin musiqişünaslıq terminlərinin leksik-semantik va struktur təhlili" dissertatsiyasiga ilmiy manbaa bo'lib xizmat qilgan. Bu esa turkiy xalqlarning til, madaniyat, ilm-fanda doimo aloqada bo'lganligini bildiradi. Nafaqat turkiy xalqlar, balki butun muslimmon olamining musiqiy terminologiyasi umumiyl xususiyatlarga ega desak mubolag'a bo'lmayıdi. Buning isbotini Z.Arıpovning "Arab musiqa terminlari tiziminining shakllanishi va taraqqiyoti (X-XV asrlar O'rta Osiyo olimlarining musiqashunoslikka oid asarlari asosida)"⁴⁵ nomli dissertatsiyasida keltirilgan musiqiy terminlar misoldan ham ko'rishimiz mumkin:

Surnay – ikki asosdan "sarra" (xursand qilmoq) arab fe'lidan yasalgan masdar "sur" (xursandchilik) yoki "surur (xursandchilik), ikkinchisi forscha "nay" so'zi, ya'ni suray atamasining ma'nosi "xursandchilik nay".⁴⁶ Ushbu termin turkiy xalqlarda "suruna", "sirnay", "zurna" shakllarida uchraydi. O'zbek tiliga ushbu termin kompozitsion butunlik tarzida qabul qilingan. Ya'ni o'zga tilda yasalib, yaxlit bir asos tarzida kirib kelgan.

Tabl – "nog'ora". Ushbu musiqiy termin arabcha "nuqqara" so'zining buzilgan shakli.⁴⁷ Demak, ushbu termin o'zbek tiliga VIII asrda o'zlashgan. Turkiy xalqlarda ushbu termin "tabl", "nag'ara" shakllarida uchraydi.

⁴⁵ Z.Arıpov. Arab musiqa terminlari tiziminining shakllanishi va taraqqiyoti (X-XV asrlar O'rta Osiyo olimlarining musiqashunoslikka oid asarlari asosida). DSc., 2019.

⁴⁶ O'sha asar 181-bet.

⁴⁷ Z.Arıpov. Arab musiqa terminlari tiziminining shakllanishi va taraqqiyoti (X-XV asrlar O'rta Osiyo olimlarining musiqashunoslikka oid asarlari asosida). DSc., 2019. 181-bet.

ФИО автора: Eshbo'tayeva Shohsida Toshnazarovna (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti, universitetining lingvistika yo'nalishi, 2-kurs magistranti)

Ilmiy rahbar: B.Abdushukurov (f.f.d.,prof)

Название публикации: «TURKIY TILLAR MUSIQIY TERMINOLOGIYASI TADQIQI»

Annotatsiya: *Ushbu maqolada turkiy tillar tarkibidagi musiqiy terminlar qiyosiy aspektida tadqiq etildi. Ularning shakllanishi va rivojlanishi, o'zaro mushtarakligi turli misollar orqali ko'rib chiqildi.*

Kalit so'zlar: turkiy tillar, musiqiy termin, uyg'unlik, xalqaro musiqiy terminlar, musiqqa nazariyasi, musiqqa amaliyoti, musiqqa estetikasiga oid terminlar.

Turkiy xalqlar tarixiy taraqqiyot davomida doimo uyg'un holda rivojlanib kelgan. Ushbu uyg'unlik ular leksikasida ham o'z aksini topib, yaxlit bir turkiy tillar oilasini tashkil etgan. Barcha sohalar qatori musiqqa san'ati ham turkiy xalqlarda ma'lum bir umumiylikka ega. Musiqqa san'ati tili, unda qo'llaniladigan terminlar leksik, fonetik, morfologik va boshqa lingvistik xususiyatlarga ko'ra turkiy xalqlarda umumiyligi farqli jihatlarga ega. Qiyosiy-tarixiy aspektida musiqiy terminlarni tahlil qilish orqali bugungi kunda turkiy tillar tarkibidagi o'zgarishlar, tillar aro aloqa va boshqa xususiyatlarni aniqlash mumkin. Tilshunoslik va musiqashunoslikning kesishuvidan sohaviy terminologiyada musiqiy terminologiya shakllandi. Uning shakllanishiga turli tadqiqotlar tarkibida o'rganilgan musiqiy terminologiyaga oid manbalar asos bo'lib xizmat qildi. Masalan, H.Dadaboyev "Общественно-политическая и социально-экономические терминоология в тюркоязычных памятниках XI-XIV вв" nomli dissertatsiyasida harbiy maqsadlarda foydalanilgan musiqiy terminlarni izohlاب о'tadi. Shuningdek, ushbu tadqiqotchi Azarbayjonda nashr etiladigan "Türkologiya" jurnalidagi maqolasida Sharafiddin Ali Yazdiyining "Zafarnoma" sida keltirilgan musiqiy terminlarni alohida izohlaydi. Ular: "xànanda, sàzanda, muğanniy, un tart, musiqiy fani, arğanun, qanun, qobuz, yatağan, ud, vizrâb" kabilar bo'lib, ular turkiy xalqlar uchun umumiyligi xarakterga ega. H.Dadaboyev harbiy maqsadda foydalanilgan musiqiy cholg'u nomlarini anglatuvchi terminlarga quyidagilarni keltirib o'tadi: "naqâra, nafir, körägä, kös, burğu"⁴⁴. Tadqiqotchi ushbu cholg'ulardan temuriylar davrida harbiy maqsadda foydalanilganini ta'kidlaydi. Demak, ushbu cholg'u nomlarini anglatuvchi musiqiy terminlar XIV asrning ikkinchi yarmi XV asr boshlarida o'zbek tili tarkibida iste'molda bo'lgan. Ammo bugungi kunda ular o'zbek tilida istorizmlar tarkibiga kirgan. Bundan ko'rindaniki, ushbu terminlar anglatgan tushunchalar ham istemoldan chiqqan.

⁴⁴ Дадабоев Х. Лексические особенности перевода на строузбекский язык "Зафар - Наме" Шараф Ал Дина Али Йезди. Türkologiya. – Азарбайжан. 2015. – С.37-38.

Balamanning korpusida 5 dan 9 ga qadar teshikchalar bo'lib, bulardan biri orqa tomonda (quyi tomonda) bo'ladi".⁵¹

Aynan mana shu "balaman" termini keyinchalik nashr etilgan "Musiqa lug'ati" da "Dog'istonda yasti – balahan deb ham ataladi", "xuddi Xorazm balabonidek"⁵² deya ta'riflanadi.



Balaban, bulamon forscha – Balobam, bolo – baland, bom – past, baland va past registrlarda birdek jaranglovchi diapazoni keng cholg'u ma'nosida qo'llanilgan. Bizningcha ushbu termin har bir xalqning til xususiyatlari, madaniyati nuqtayi nazaridan turlicha shakl va nomlanishga ega bo'lgan. Demak, ushbu termin tarixiy taraqqiyot davomida quyidagi o'zgarishlarga uchragan:

balaban → singarmanizmga rioya qilingan, b lashish mavjud, sof turkiy so'z.

bolaban → singarmanizm hodisasi buzilgan, b lashish saqlangan.

bolaman → singarmanizm hodisasi buzilgan, b tovushi m tovushiga o'zgargan.

Bugungi kunda o'zbek umumxalq tilida ushbu terminning bulaman shakli keng qo'llaniladi.

Xulosa o'mida shuni aymoqchimizki, cholg'u nomlarini ifodalovchi musiqiy terminlar turkiy xalqlar va musulmon olamida umumiylar xarakterga ega. Ushbu xalqlar musiqa nazariyasi va amaliyotiqa oid musiqiy terminlar butun jahon musiqiy terminologiyasiga xos bo'lib, asosan, italyan, fransuz, ispan, lotin tillariga mansub terminlarni o'zlashtirish orqali hosil bo'lgan. Musiqa estetikasiga oid terminlar esa har bir xalq tilida o'ziga xos xarakterga ega. Bundan ko'tinadiki, musiqiy terminlarning shakllanishi va rivojlanishini tadqiq etish orqali til tarkibining o'zgarishini, o'zga tillar bilan aloqasini aniqlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- Акбаров И. Мусика лугати. – Т.: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашириёти, 1987.

⁵¹ Акбаров И.А. Мусика лугати. – Т.: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашириёти, 1987. – Б.32-33.

⁵² Уша асар. – Б. 28.

Nay – forscha puflama cholg'u. Aynan shu termin asosida o'zbek tilida g'arov nay, yog'och nay, mis nay, g'ajir nay, qo'shnay⁴⁸ kabi qo'shma so'zlar yasalgan. Nomlanishda cholg'uning qanday ashyodan yasalgani asos qilib olingan. Ushbu termin turkiy xalqlarda “ney”, “nay” shakllarida uchraydi.

Demak, cholg'u nomlarini anglatuvechi musiqiy terminlar turkiy xalqlarda fonetik xususiyatlariga ko'ra farqlidir.

Musiqiy terminologiyada shunday terminlar ham borki, ular bir til tarkibida turlicha nomlar bilan ataladi. Bunday musiqiy terminlar turkiy tillarda ham turli shakllarga ega. Masalan, turkiy xalqlar musiqasiga xos bo'lgan “*balaban*” cholg'usi o'zbek tilida “*bulamon, bolaban, holaman, balahan, halaban*” shakllariga ega. Ushbu terminlar musiqa lug'atlarida turlicha ta'riflanadi. Jumladan:

“*Balahon* – (*bulamon, bolaban, holaman*)

1. Qadimiy o'zbek xalq cholg'u asboblaridan. Ko'proq Xorazmda tarqalgan. Yog'och (odatda tut) dan yasalib boshdan-oxiriga qadar parmalab ishlab chiqilgan. Shakli surnayga o'xhash, lekin undan biroz kichik (nomi ham shundan, ya'ni *surnayning bolasiman*) uzunligi taxminan 300 mm. Balabonning yuqori qismiga o'rnatishirilgan “tili” qadimdan tayyorlanib, II shaklida qirqiladi. Balabonda sakkizta teshik mavjud, buning yettitasi ust va biri orqa tomonda. Orqa tomondagi teshik yuqorida bo'lib, chap qo'lning bosh barmog'i bilan berkitiladi. Tovushqatori diatonik, kichik oktavadagi re va re-bemoldan boshlab uch oktavaga yaqinlashib boradi. Balabonda yakka ijro qilish mumkin bo'lganidek, turli ansambl va orkestrlarda ham chalinadi. Demak, o'zbek tilida ushbu cholg'uni nomlashda uning hajmiga e'tibor qaratilgan. Ya'ni, bolaman – surnayning bolasiman.

2. Qamishdan yasalgan Dog'iston xalq cholg'u asbobi. Ijro etiladigan tomoni “til” qilinib kesiladi. Umumiyligi 150-200 mm. Amaliy tovushqatori diatonik.⁴⁹

Ushbu termin bir o'rinda “*bo'lomon*”⁵⁰ deb ham atalgan.

“*Balaman* – Arman yo gruzinlarning duduwig'a o'xhash qamishdan yasalib, maxsus “til” bilan ijro etiladigan ozarbayjon xalq cholg'u asbobi. Bu cholg'u asbobini *yasti balaman* (Dog'istonda – *yasti balaban*) deb ham ataladi. Balaman tut yo o'rik yog'ochidan yasaladi. Yog'ochni nay shaklida parmalab, bosh qismiga “qo'sh til” o'rnatilib chalinadi. Umumiyligi 300 mm. (xuddi Xorazm *balabanidek*).

⁴⁸ O'sha asar 185-bet.

⁴⁹ Акбаров И.А. Мусика лугати. – Т. Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашириёти. 1987. – Б. 31.

⁵⁰ Ўша асар. – Б. 26.



2. Азизов С. "Лексико-грамматическое исследование музыкальной терминологии узбекского языка". Дис.1981.
3. Aripov Z. Arab musiqa terminlari tizimining shakllanishi va taraqqiyoti (X-XV asrlar O'rta Osiyo olimlarining musiqashunoslikka oid asarlari asosida). DSc., 2019.
4. H.Dadaboyev "Общественно-политическая и социально-экономические тарминоология в тюркоязных памятниках XI-XIV вв". Дис.
5. Дарабоев X. Лексические особенности перевода на строузбекский язык "Зафар -Наме" Шараф Ад Дина Али Йезди. Türkologıya. – Азарбайжан. 2015.